

LEXICONIC-THEMATIC GROUPS OF RELIGIONYMS

Zulaykho H. Toychiyeva*

* Teacher, Department of Uzbek Linguistics (Republic of Uzbekistan)

Abstract: The article covers the issue of dividing religionyms into thematic groups that create several advantages in learning and mastering them and helps in understanding the meaning of such kind of terms.

Keywords: language, religion, religionym, original layer, assimilation layer, lexical level, term, lexical-semantic, international.

DINIY RELIGIONIMLARNING LUG‘AVIY-MAVZUIY GURUHLARI

Zulayho H. To‘ychiyeva*

* O‘zbek tilshunosligi kafedrası o‘qituvchisi (O‘zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniy religionimlarni mavzuiy guruhlariga bo‘lib o‘rganish, o‘zlashtirishda bir qancha qulayliklarni yuzaga keltiradi hamda diniy atamalar mazmun-mohiyatini tushunishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: til, din, religionim, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, leksik sath, termin, leksik-semantik, baynalmilal.

Yurtimizda bugungi kunda til va din ilmining o‘zaro aloqalarini o‘rganish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlarda diniy leksikografik asarlarda religionimlarga oid masalalar yoritilgan bo‘lib, diniy religionimlarning leksikografik asarlarda berilish xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida monografik planda o‘rganilmagan. Mustaqil O‘zbekistonimizda barcha sohalar singari «diniy erkinlik borasida ham vaziyat keskin yaxshilandi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash biz uchun doimiy muhim vazifadir»¹. Bu vazifani amalga oshirishda tilshunoslik fani doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o‘zbek tilidagi diniy leksikani leksikografik asarlarda aks etish xususiyatlarini yoritish hozirgi o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O‘zbek xalqi o‘ziga qardosh bo‘lmagan tojik xalqi bilan qadimdan yaqin aloqada bo‘lib keladi. Shuningdek, ijtimoiy-tarixiy sabab va omillarga ko‘ra arablar, mo‘g‘ullar, ruslar bilan ham aloqa munosabatida bo‘lgan. Hozirgi davrga kelib yangi sharoitda bir qancha xorijiy davlatlar bilan ham o‘zaro hamkorlik munosabatlari o‘rnatildi. Ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida bugungi kunda o‘zbek tili leksikasidagi ko‘plab chet so‘zlarning

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. 23.09.2020//<https://president.uz/uz/lists/view/3851>

o'zlashish jarayoni ketmoqda. Demak, o'zbek tili lug'aviy tarkibining o'zlashmalar qatlami – o'zbek tiliga qarindosh bo'lmagan tillardan turli davrlarda o'zlashgan so'zlardan iboratdir. Tarixda, yuqorida ta'kidlanganidek, fors-tojik, arab tillaridan ko'plab so'zlar o'zlashtirilgan². Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo tillari orasida og'zaki va yozma muloqotni faqat o'z lug'at boyligiga tayanib, amalga oshiradigan birorta til yo'q. Har bir tilda o'z so'zlari bilan birga o'zlashma so'zlar qatlami ham mavjud. Shu sababli til sathlari orasida eng o'zgaruvchan sath leksik sath hisoblanadi. Bu holat o'zbek tilining lug'at tarkibida yaqqol kuzatiladi. O'zbek tili lug'at boyligini tashqi manbalar hisobiga boyitish, kengaytirish – chet tillardan so'z o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Yuz yildan ortiq vaqt mobaynida rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'p sonli so'z va terminlar o'zlashtirildi. Shuningdek, o'zbek tilidagi tarixiy o'zlashma qatlamlarning imkoniyatlari – o'zbek tilidagi arabcha, fors-tojikcha so'zlar qatlami ham yangi ma'no va terminologik funksiyalarda faollashtirildi. Natijada o'zbek adabiy tilining (umuman o'zbek milliy tilining) lug'at tarkibi yangi-yangi so'zlar, terminlar, iboralar hisobiga boyidi, uning leksik-semantik sistemalarida yanada rivojlanish, silliqanish, o'tkirlashish, to'lishish yuzaga keldi³.

O'zbek tiliga turli davrlarda, turli tillardan o'zlashgan so'zlarni tadqiq qilish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilgan⁴. O'zbek til jamoasiga hududiy yaqin bo'lmagan xalqlardan biri arablardir. O'zbek tili va uning lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishida arab tilining ham samarali o'rni va ta'siri bor. Latin va grek tillari yevropa xalqlari tillariga qanday ta'sir qilgan bo'lsa, arab tili ham musulmon mamlakatlari xalqlari tiliga o'shanday ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun ham arab lug'aviy o'zlashmalari musulmon mamlakatlari xalqlari tili leksikasida baynalmilal qatlamni tashkil qiladi. Bu ham, albatta, o'ziga xos nolisoniy asosga ega⁵.

O'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklar o'ziga xos nolisoniy asoslarga ega. Bu nolisoniy asos asrlar osha bir hududda og'a-inilarcha yashab kelayotgan o'zbek va tojik xalqlarining mushtarak ijtimoiy taqdiri bilan bog'lanadi. Bu ikki xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti, diniy va axloqiy e'tiqodi, madaniyati, ma'naviy va ruhiy olami biri boshqasidan farq qilmaydi. Bularning barchasi ularning tillarida ham o'z ta'sir kuchiga ega. Shu bois o'zbek tili lug'at tarkibida forscha-tojikcha, tojik tili lug'at tarkibida o'zbekcha-turkcha lug'aviy birliklar ko'p miqdorda uchraydi. Zero til va uning markaziy birligi bo'lmish so'zlar orqali ijtimoiy va tabiiy hayotdagi barcha narsa-hodisalar va ularning o'zaro munosabatlari in'ikos etiladi⁶.

O'zbek tiliga diniy tushunchalarni anglatuvchi religionimlar tabiiyki asosan arab tilidan o'zlashgan. Qur'oni karimning arab tilida nozil bo'lishi, hadislarining arab tulida berilishi va hattoki bir necha yuz yillar mobaynida arab tilining ilm-fan tili bo'lishi buning asosiy sabablaridan deb bilamiz. Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqimizning kundalik hayotini, turmush tarzini, marosim va tadbirlarini, besh mahal namoz o'qishi (ibodati)da Allohni doim zikr qilishi, din va Alloh bilan bog'liq tushunchalarni arab tilida yoddan aytishi tadbirlar (namoz vaqtida, juma namozlarida, to'y (nahor oshi, aqiqa, nikoh o'qish)dagi amruma'ruflarda arabcha so'zlar ko'p ishlatiladi. O'zbek tiliga arab tili faqat din tili, islom tili sifatida emas, balki fan tili, rasmiy idoraviy uslub tili, badiiy adabiyot tili sifatida o'zlashgan. Shu bois ham arab lug'aviy o'zlashmalari o'zbek ijtimoiy hayotiga daxldor deyarli barcha asosiy tushunchalarni ifodalashdek keng ko'lamga ega bo'ldi. Ularning bu ko'lamini quyidagi tematik guruh va to'dalardan ham bilish mumkin.

² Ўзбек тили практикуми. 1-қисм. // Масъул муҳаррир: Сапаев Қ. – Тошкент, 2005. – Б. 66. – 96.

³ Ўзбек тили лексикологияси // Масъул муҳаррирлар: А.Ҳожиёв, А.Аҳмедов // – Тошкент, 1981. – 315 б. – Б.47.

⁴ Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1946; Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1960; Мухаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси таракқиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг тарихий-этимологик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981; Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.

⁵ Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, Turon-Iqbol, – 2021. – B.8.

⁶ Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, Turon-Iqbol, – 2021. – B.109.

1. Asosiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi atamalar: Alloh, Ruh, Iymon, Ilohiy ishq;

2. Diniy, axloq-odob tushunchalarni ifodalovchi atamalar: Savob, Gunoh, Halol, Harom, Tavba;

3. Farishtalar nomlari: Maloika (farishtalar, 97), Jabroil, Azroil, Mikoil, Isrofil, Munkar va Nakir.

Maloika – farishtalar. Alloh taolo farishtalarni nurdan yaratgan. Alloh taologa toat-ibodatda bo‘lishadi, erlik va ayollik sifati bilan sifatlanishmaydi, insonlar kabi yeb-ichishmaydi, uxlashmaydi, ularda shahvat yo‘q.

Ul vaqtdur Haq taolo *maloikaga* Ibrohim alayhissalomning sidq tavakkulin bu nav bildurdi. Har oynakim o‘tni anga guliston qildi⁷.

Azroil – jon oluvchi farishta. Islom dinida to‘rt bosh farishtadan birining nomi (Jabroil, Mikoil va Isrofil bilan birga).

Jabroil – islomda to‘rt mukarrab farishtalardan biri. Alloh amrlarini Payg‘ambarlarga yetkazib, vahiy keltiruvchi (xabar beruvchi), samoviy ofatlarni yer yuzida ijro qiluvchi farishta.

Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroil kabi farishtalarning ulug‘lari ham bor. Bu farshitalar nuroniy va latifdirlar, har shakl va sifatga kirmoqqa qobiliyatlidirlar⁸.

4. Payg‘ambarlar nomlari. Payg‘ambar forscha so‘z bo‘lib, “payg‘om, payyom – xabar, xabar keltiruvchi” ma‘nolarni anglatadi. Ilohiy kuchdan vahiy olgan shaxslarning nomi hisoblanadi. Qur‘oni karimda quyidagi Payg‘ambarlar nomi zikr etilgan: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Is‘hoq, Ya‘qub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zul-Kifl, Yunus, Muso, Horun, Shuayb, Ilyos, Al- Yasa‘, Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso va Muhammad alayhissalom. Ana shu va boshqa o‘tgan payg‘ambarlarning barchasini tasdiq etib, ularning barhaq payg‘ambar bo‘lib o‘tganliklariga ikkilanmay iymon keltirish har bir musulmon zimmasidagi iymon shartlaridandir. Demak, payg‘ambarlarning birinchisi – Odam (a.s.), oxirgisi – Muhammad (s.a.v.)dir. Ulardan keyin to qiyomat kunigacha boshqa payg‘ambar kelmaydi.

5. Payg‘ambarimiz nomlari: Rasul, Nabiy, Rasuli Akram, Rasullulloh, Allohning elchisi, Sayyidi olam, Sallollohu alayhi va sallam, Sarvari koinot, Xayrul bashar.

Rasul – arab. - elchi. Allohning amr va yo‘l-yo‘riqlarini insonlarga yetkazadigan va Kitob, yangi shariat sohibi bo‘lgan hamda bandalar ichidan tanlab olingan payg‘ambar. Hikmati Allohning o‘ziga ayon bo‘lgan bu qoidaga ko‘ra, har bir “Rasul” “Nabiy” bo‘lur, ammo “Nabiy” “Rasul” bo‘la olmaydi⁹.

Rasuli akram – eng mukarram elchi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga nisbatan qo‘llaniladigan hurmat-ehtiroمنى anglatuvchi ibora.

Sakkizinchi: Hazrat Rasuli akram sallollohi alayhi va sallamning sunnatlarini bajo kelturmak turur¹⁰.

Rasullulloh ham arabcha so‘z. U Allohning elchisi ma‘nosini anglatib keladi.

6. Muhammad (s.a.v.) oila a‘zolari va sahobalari: Abdulloh, Omina, Abdulmuttalib, Abu Tolib ibn Abdulmuttalib, Abu Bakr, Xadicha, Oysha, Ali, Husain, Abu Muso al-Ash‘ariy.

7. Diniy marosimlarni ifodalovchi atamalar: arafa, hayit, ro‘za, ramazon hayiti, qurbon hayiti, haj, Amri Ma‘ruf, Amrima‘ruf, Aqiqa, Valima (nikoh to‘yi), xatna. *Aqiqa* – “Aqiqa” lug‘atda “qirqish, kesish” ma‘nosini anglatib, aslida, yangi tug‘ilgan bolaning sochini kesishga aytiladi. Shariat ta‘limotlariga muvofiq tug‘ilishning yettinchi kuni bolaning sochi olinib, o‘sha soch og‘irligida kumush sadaqa qilmoq tavsiya qilinadi. Ana o‘sha soch boshdan ajratib olingani uchun “aqiqa” deyiladi. Shu munosabat bilan so‘yiladigan qo‘y ham “aqiqa” deb ataladi. Hanafiy mazhabiga ko‘ra farzand tug‘ilganda shukrona tariqasida o‘g‘il bola uchun ikkita qo‘y, qiz bola uchun bitta qo‘y qurbonlik qilish amali sunnat hisoblanadi.

⁷ A.Navoiy. 15-tom. Tarixi anbiyo va hukamo. T.://G‘.G‘ulom nashriyoti, 1968, 195-b.

⁸ Ibroxim al Bursoviy. Ahli sunna val jamoa aqoidi. II tom, T.:// Movarounnahr, 1999, 81-b.

⁹ Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o‘g‘li. Payg‘ambarlar qissasi. T.:// Qomuslar bosh tahririyati, 1993, 7-b.

¹⁰ Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Istambul//Matbaai Mahmudbek, 1900, 3-b.

Amrima'ruf – 1. Yaxshilikka buyurish, yomonlikdan qaytarish. Qirq farzdan biri. 2. Marosim, ma'raka. *Arafa* – Zulhijja oyining to'qqizinchi kuni, ya'ni Qurbon hayiti kunidan avvalgi kun.

8. *Ibodatga oid va ularning vaqlarini ifodalovchi atamalar:* namoz, tahorat, juma, bomdod, shom, peshin, asr, xufton, ruku, qoyim, avvobin namozi, azon.

Juma – arab. - jamlik, jam bo'lish. 1. Haftaning juma kuni musulmoilar masjidda jam bo'lib, juma namozini o'qib, diniy xutba, va'z, pand-nasihat eshitadilar. Payg'ambarimiz bu kunni kunlarning sayyidi (ulug'i) deb ataganlar.

Odam Ato yaratilgan kun. Qiyomat ham shu kuni bo'ladi.

*Qiyomat juma kuni qoim bo'ladi. Jumada qiyomatga o'xshashlik bor, odamlar jam buladi*¹¹.

Juma namozini o'qishi uchun g'usl qilish, tirnoqlarni olish, xushbo'ylik sepish, misvok ishlatish, toza kiyimlar kiyish sunnat amallari¹².

9. *Masjidlarga taalluqli atamalar:* mehrob, xutba, muazzin.

Mehrob arabcha so'z bo'lib, sajdagoh ma'nosini beradi. Masjidning ichida qibla tarafda imomning namoz vaqtida Ka'ba tomonini ko'rsatib turadigan, taxmon shaklida qo'yilgan maxsus o'rni, joyi.

Sajda aylar zohid ul mehrobiga,

Man qilurman sajda egma qoshima¹³.

Xutba – arab. - nutq, targ'ibot. Xudoni yod qilmoq, Rasulni yod qilmoq, pandu nasihat qilmoq. Juma namozi oldidan va hayit namozidan keyin (masjid imomining) va'zxonligi, diniy pand-nasihat.

Imom *xutba* o'qilayotganda hamma narsa o'sha xutbani eshitishga kar atilishi lozim. Shuning uchun, *xutbani* eshitishga xalaqit beradigan har bir narsa *xutba* paytida man qilinadi¹⁴.

Yana namozi jum'ani ado qilmoqqa shart xutba o'qimoq, aqalli bir marotaba "Alhamdu lillah", yo bir marotaba "La ilaha illalloh" va yo bir marotaba "Allohu akbar" demoq¹⁵.

10. *Masjid nomlari:* Al-Masjid Al-Aqso, Al-Masjid Al-Harom, Baytul Haram, Haram masjidi. Baytul Haram, Masjid ul-aqso, Masjid ul-harom, Masjidun-nabaviy. *Masjid, machit* – arab. – sajda qilinadigan joy. Musulmonlar to'planib kundalik besh vaqt namozni ado etish uchun mo'ljallangan joy. Juma va hayit namozlari odatda jome masjidlarida o'qiladi¹⁶.

Masjid ul-aqso – Quddusi sharifda Sulaymon alayhissalom qurdirgan masjid nomi. Islomdan ilgari arablar, keyin esa musulmon jamoalari unga qibla sifatida yuzlanib ibodat qilishgan. Hijratning ikkinchi yilida Qur'oni karim hukmi bilan musulmonlar qibla sifatida Makkadagi Ka'bagacha qarab namoz o'qiy boshlagan.

Masjid ul-harom – Makka shahrida joylashgan eng mo'tabar va ulkan masjid. Unda qon to'kish va boshqa gunoh ishlar harom qilingani uchun shunday nom olgan. Baytulloh (Ka'ba), Zamzam bulog'i, Safo va Marva tepaliklari ham shu masjid hududidadir.

Masjidun-nabaviy – Payg'ambarimiz alayhissalomning Madina shahrida joylashgan eng mo'tabar va ulkan masjid. Masjidning ichida Payg'ambarimiz alayhissalomning qabrlari bor. Bu masjidda o'qilgan bir rakaat namoz boshqa masjidlarda o'qilgan ming rakaat namozdan afzaldir. (99)

11. *Diniy unvon va darajani ifodalovchi atamalar:* Muftiy, Imom, Rutba, Amir al-Mo'minin, Amir ul-Haj, A'lam, Maxdum, Mashoyix, Oyatulloh, **Sayyid, Xoja, Shayxulislom**, Shayx, Mashoyix.

Muftiy arabcha so'z, fatvo beruvchi ma'nosida qo'llanadi. Oydin bo'lmagan masalani istinbot asoslariga tayanib, aniqlik kiritish darajasidagi ilmga ega bo'lgan kishi. Muftiy diniy-huquqiy masalalarni izohlash va talqin etish, shariatni tatbiq qilishda hal etuvchi huquqqa ega, uning fikr-qarorlari fatvolarda bayon etilib, musulmonlar uchun

¹¹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. T. 1, T.:// Sharq, 2008, 475-b.

¹² Islom nuri. T., 2011, 30-b.

¹³ Mashrab. Devon. T.:// "Yangi asr avlodi", 2006, 51-b.

¹⁴ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. T.1. T.://Sharq, 2008, 467-b.

¹⁵ Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja. Majma'ul-maqsud. T.1. T.://Adolat, 1996, 194-b.

¹⁶ DAIL, 98

qo'llanma – dastur hisoblanadi. Diniy masalalarda qaror chiqaruvchi shariat bilimdoni. O'zbekiston musulmonlari idorasiga ham muftiy boshchilik qiladi.

“Muftiy” lug'atda masalani oydinlashtiruvchi demakdir. Istilohda oydin bo'lmagan masalani istinbot asoslariga tayanib, aniqlik kiritish darajasidagi ilmga ega bo'lgan kishiga nisbatan ishlatiladi¹⁷.

Shayxulislom arabcha so'z bo'lib, islom dini shayxi ma'nosida qo'llanadi. Diniy qonunlarni sharhlovchi. Musulmon ruhoniylari boshlig'ining unvoni, oliy diniy unvon hamda shu unvonga ega kishi, bosh ruhoni. Burhoniddin Marg'inoniyning uch o'g'ullari ham otalaridan so'ng navbatma-navbat shayxulislom bo'lganlar¹⁸.

Mashoyix – shayxning ko'plik ko'rinishi. Mashoyixlar atamasi Islom ta'limotida, asosan, tariqat ustozlariga nisbatan qo'llaniladi. Bu so'z shariat ulamolariga nisbatan ham ishlatiladi.

Yana kun *mashoyix* qoshig'a kelib dedikim, tanug' bo'lingkim, men tunokun qilgan tavbadan tavba qildim¹⁹.

12. Qur'oni karimda tilga olingan ba'zi bir shaxslarning nomlari: Abu Lahab, Abu Jahl, Bibi Maryam.

Bibi Maryam – 1. Ico alayhissalomning onasi. Maryamning otasining ismi Imron, onasining ismi esa Akimadir.2. Makkada nozil bo'lgan to'qson sakkiz oyatdan iborat, Qur'oni karimning o'n to'qqizinchi surasining nomi.

13. Vatanimiz zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar, ilohiyotchilar va ular bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari: Imom Buxoriy, at-Termiziy, Naqshbandiy, Moturudiy, Zamaxshariy, Marg'inoniy.

Al-Buxoriy – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, islomda Qur'oni karimdan keyingi o'rinda turuvchi “al-Jome” as- Sahiyh” kitobining to'plovchisi. Islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni, deb ham yuritiladi. Hijriy 194 (m. 810) yilda Buxoroda tug'ilib, hijriy 256 (m. 870) yil Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida vafot etganlar²⁰.

14. Muqaddas shaharlar nomlari: Makka (Bakka), Makkai Mukarrama, Madina, Quddus shaharlari.

Makkai Mukarrama – Islom olamida eng tabarruk shahar sanaladi. Uni “Ummul-kuro” (shaharlar onasi) deyiladi. Qur'oni karimning 86 ta surasi Makkada nozil bo'lgan. Unda Muhammad (s.a.v) tavallud topganlar, u zotga ilk ilohiy vahiy shu yerda nozil bo'lgan. Islomning bosh masjidi Masjidlul Harom, musulmonlar qiblasiga Ka'ba, Zamzam bulog'i, Safo va Marva tog'lari ham Makkada.

Hajda musulmon banda omonlik yurti bo'lmish Makkai mukarramaga safar qiladi. Makka – ulug', muqaddas shahar. Bu shaharni Alloh taolo Qur'oni Karimda “Ummul quro” - “shaharlarning onasi”, deb atagan²¹.

Bakka – Makkai mukarramaning qadimiy nomlaridan biri. “Bakka” so'zining lug'aviy ma'nosi “taqillatib urmoq” bo'lib, Makkada har qanday mag'rurning ham bo'yni egiladi. Shuning uchun u “Bakka” ham deyilgan.

Diniy religionimlarni mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganish diniy tushunchalarni o'rganishda, o'zlashtirishda bir qancha qulayliklarni yuzaga keltiradi hamda diniy atamalar mazmun-mohiyatini tushunishda yordam beradi. Islomiy diniy religionimlar arab tili orqali kirib kelgan leksik birliklar alohida lug'aviy guruhni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

REFERENCES

Alisher Navoiy. 15-tom. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1968.

Alisher Navoiy. 15-tom. Nasoyimul-muhabbat. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1968.

Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.

¹⁷ Hidoyat. T., 2001/7, 22-b.

¹⁸ B.Marg'inoniy. Hidoya. T. 1. T.://Adolat, 2000, 11-b.

¹⁹ Alisher Navoiy. 15-tom. Nasoyimul-muhabbat. T.://F.Fulom nashriyoti, 1968, 98-b.

²⁰ DAIL, 26

²¹ Muhammad Sodiq Muxammad Yusuf. Kifoya. T.2. T.://Sharq, 2008, 177-b.

DAIL, 26.

Hidoyat. – Toshkent, 2001/7.

Ibroxim al Bursoviy. Ahli sunna val jamoa aqoidi. II tom. – Toshkent: Movarounnahr, 1999.

Islom nuri. T., 2011.

Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja. Majma'ul-maqsud. Tom 1. – Toshkent: Adolat, 1996.

Mashrab. Devon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Kifoya. Tom 1. – Toshkent: Sharq, 2008.

Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o'g'li. Payg'ambarlar qissasi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1993.

Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Istanbul: Matbaai Mahmudbek, 1900.

Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1946.

Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.

Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг тарихий-этимологик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.

Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.

Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982.

Ўзбек тили лексикологияси // Масъул муҳаррирлар: А.Ҳожиёв, А.Аҳмедов // – Тошкент, 1981.

Ўзбек тили практикуми. 1-қисм. // Масъул муҳаррир: Сапаев Қ. – Тошкент, 2005.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. 23.09.2020. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3851>

Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1960.

Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974.

Reviewer (Taqrizchi):

Fazliddin G. Sharipov

DSc, Professor

Gulistan State University

AUTHOR(S)

MUALLIF(LAR)

Muallif – To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna, Guliston davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedراسи o'qituvchisi (O'zbekiston)